



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 16 - sentabr

VI-65-184-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining hisoboti haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga hamda xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil ish rejasiga asosan xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Qo‘ziyevaning o‘tgan vaqt davomida doimiy komissiya faoliyatiga doir hisobotini tinglab, bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Qo‘ziyevaning doimiy komissiya faoliyatiga doir hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo‘ziyeva):

- xalq deputatlari tuman Kengashining qarori bilan tasdiqlangan doimiy komissiyalar to‘g‘risidagi Nizom talablari asosida doimiy komissiya faoliyatini tashkil etsin;

- doimiy komissiya hamda tuman Kengashi ish rejasida komissiya faoliyatiga doir belgilangan tadbirlarni joyiga chiqib o‘rgangan holda doimiy komissiya majlisida muhokama etib, sessiya kun tartibiga kiritilishini ta’minlasin;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagи “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 145-sonli qarori asosida tumanda ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo‘lmagan xotin-qizlar bilan «Ayollar daftari»ni yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularni ijtimoiy - huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hamda 2022-yil 7-

iyundagi “Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-sonli qarorlariga muvofiq tumanda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tizimli nazoratini ta’minlasin.

3. Tuman hokimligi Axborot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi (G.Jumayeva)ga xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishi nazorat qilishni xalq deputatlari Angor tuman Kengashi raisi o‘rinbosari I.Baxromov zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov